

**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2020- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)**

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 468,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 291,1 mln. AQSh dollariga yoki 38,3 % ga kamaydi.


**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI  
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)**

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>TSA</b>	666,2	759,9	468,8	61,7 %
<b>Eksport</b>	249,5	335,0	191,6	57,2 %
<b>Import</b>	416,7	425,0	277,2	65,2 %
<b>Saldo</b>	-167,2	-90,0	-85,6	

*Ma`lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 191,6 mln. AQSh dollariga (42,8 % ga kamaydi) va import hajmi 277,2 mln. AQSh dollariga (34,8 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 85,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**  
(2020- yil yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



**Xitoy Xalq Respublikasi**  
TSA – 109 187,7  
Eksport – 14 156,1  
Import – 95 031,6



**Rossiya Federatsiyasi**  
TSA – 52 512,3  
Eksport – 29 093,0  
Import – 23 419,3



**Turkiya**  
TSA – 47 494,1  
Eksport – 23 450,4  
Import – 24 043,7



**Qozog'iston**  
TSA – 42 272,7  
Eksport – 30 084,8  
Import – 12 187,9



**Germaniya**  
TSA – 40 939,2  
Eksport – 81,2  
Import – 40 858,0



**Eron**  
TSA – 35 293,4  
Eksport – 34 918,0  
Import – 375,4



**Afg'oniston**  
TSA – 15 572,7  
Eksport – 15 507,1  
Import – 65,6



**Xindiston**  
TSA – 14 855,3  
Eksport – 2 452,8  
Import – 12 402,5



**AQSH**  
TSA – 12 487,4  
Eksport - 34,2  
Import – 12 453,2




**Qirg'iz Respublikasi**  
TSA – 11 817,9  
Eksport – 9 760,2  
Import – 2 057,7

Qashqadaryo viloyati, jahonning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (23,3 %), Rossiya Federatsiyasida (11,2 %), Turkiyada (10,1 %), Qozog'istonda (9,0 %), Germaniyada (8,7 %), Eron (7,5 %) va Afg'oniston (3,3 %) qayd etilgan.



**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
OYLIK DINAMIKASI  
(mln. AQSh dollari)**




Tashqi savdo aylanmasi hajmi 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 468,8 mln. AQSh dollarini tashkil yetdi va 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 38,3 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi infografikasining ko'rsatkichlarini oylar kesimida tahlil qilsak, 2019- yilning fevral oyida bir oz pasayishdan so'ng, oylik barqaror o'sish kuzatilganini ko'rish mumkin.

Xuddi shu ko'rsatkichlar 2020- yil uchun tubdan farq qilib, yanvar va fevral oylarida tashqi savdo aylanmasi 49,7 mln. AQSh dollari darajasida qayd etilgan bo'lsa, mart oyiga kelib 20,0 mln. AQSh dollariga kamayishni tashkil etdi.


2020- yilda eng katta pasayish yanvar-noyabr oylarida 468,8 million AQSh dollari ko'rsatkichida qayd etildi. O'tgan yilning shu oyiga nisbatan tashqi savdo aylanmasining kamayishi 291,1 million AQSh dollarini tashkil qildi.



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iz, Tojikiston Respublikalari va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **9** ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Eron (**34 542,6** ming AQSh dollari), Qozog'iston (**17 896,9** ming AQSh dollari), Afg'oniston (**15 441,5** ming AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (**7 702,5** ming AQSh dollari), Pokiston (**7 396,7** ming AQSh dollari), Tojikiston (**6 852,2** ming AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (**5 673,7** ming AQSh dollari), Indoneziya (**5 997,0** ming AQSh dollari), va Ukraina (**759,3** ming AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 11 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.


**QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>☐ Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>134 654,8</b>	<b>207 923,4</b>	<b>109 187,7</b>
Eksport	61 512,4	45 837,8	14 156,1
Import	73 142,4	162 085,6	95 031,6
Saldo	-11 630,0	-116 247,8	-80 875,5
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>72 442,2</b>	<b>75 412,2</b>	<b>52 512,3</b>
Eksport	30 536,9	33 625,2	29 093,0
Import	41 905,3	41 787,0	23 419,3
Saldo	-11 368,4	-8 161,8	5 673,7
<b>Turkiya</b>	<b>49 186,8</b>	<b>72 423,1</b>	<b>47 494,1</b>
Eksport	28 002,1	58 953,8	23 450,4
Import	21 184,7	13 469,3	24 043,7
Saldo	6 817,4	45 484,5	-593,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>42 656,4</b>	<b>73 126,3</b>	<b>42 272,7</b>
Eksport	27 603,3	40 256,8	30 084,8
Import	15 053,1	32 869,5	12 187,9
Saldo	12 550,2	7 387,3	17 896,9
<b>Germaniya</b>	<b>9 731,7</b>	<b>21 261,4</b>	<b>40 939,2</b>
Eksport	0,1	6,0	81,2
Import	9 731,6	21 255,4	40 858,0
Saldo	-9 731,5	-21 249,4	-40 776,8
<b>Eron</b>	<b>15 765,9</b>	<b>57 920,5</b>	<b>35 293,4</b>
Eksport	14 194,8	54 872,8	34 918,0
Import	1 571,1	3 047,7	375,4
Saldo	12 623,7	51 825,1	3 4542,6




Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Afg'oniston</b>	<b>8 191,7</b>	<b>28 645,1</b>	<b>15 572,7</b>
Eksport	8 191,7	28 614,8	15 507,1
Import	-	30,3	65,6
Saldo	8 191,7	28 584,5	15 441,5
<b>Hindiston</b>	<b>5 833,8</b>	<b>5 105,9</b>	<b>14 855,3</b>
Eksport	244,1	312,4	2 452,8
Import	5 589,7	4 793,5	12 402,5
Saldo	-5 345,6	-4 481,1	-9 949,7
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>3 682,4</b>	<b>10 454,2</b>	<b>11 817,9</b>
Eksport	2 517,5	10 311,2	9 760,2
Import	1 164,9	143,0	2 057,7
Saldo	1 352,6	10 168,2	7 702,5
<b>AQSH</b>	<b>4 951,7</b>	<b>9 375,9</b>	<b>12 487,4</b>
Eksport	25,6	20,4	34,2
Import	4 926,1	9 355,5	12 453,2
Saldo	-4 900,5	-9 335,1	-12 419,0
<b>Yaponiya</b>	<b>13 946,9</b>	<b>6 040,3</b>	<b>8 874,9</b>
Eksport	-	16,2	628,7
Import	13 946,9	6 024,1	8 246,2
Saldo	-13 946,9	-6 007,9	-7 617,5
<b>Tojikiston</b>	<b>29 222,4</b>	<b>19 173,4</b>	<b>7 545,2</b>
Eksport	27 623,1	18 142,1	7 198,7
Import	1 599,3	1 031,3	346,5
Saldo	26 023,8	17 110,8	6 852,2
<b>Pokiston</b>	<b>5 950,2</b>	<b>14 273,2</b>	<b>7 670,1</b>
Eksport	5 205,0	13 832,6	7 533,4
Import	745,2	440,6	136,7
Saldo	4 459,8	13 392,0	7 396,7

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Indoneziya</b>	<b>27 078,2</b>	<b>13 907,9</b>	<b>5 997,6</b>
Eksport	27 078,2	13 875,9	5 997,3
Import	-	32,0	0,3
Saldo	27 078,2	13 843,9	5 997,0
<b>Belarussiya</b>	<b>1 448,6</b>	<b>4 665,5</b>	<b>5 747,8</b>
Eksport	341,9	397,2	254,0
Import	1 106,7	4 268,3	5 493,8
Saldo	-764,8	-3 871,1	-5 239,8
<b>Fransiya</b>	<b>1 661,6</b>	<b>4 882,6</b>	<b>4 470,5</b>
Eksport	0,3	-	0,1
Import	1 661,3	4 882,6	4 470,4
Saldo	-1 661,0	-4 882,6	-4 470,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>15 1875,3</b>	<b>32 043,0</b>	<b>4 263,3</b>
Eksport	5,0	1 344,9	26,2
Import	151 870,3	30 698,1	4 237,1
Saldo	-151 865,3	-29 353,2	-4 210,9
<b>Avstraliya</b>	<b>1,1</b>	<b>477,0</b>	<b>4 531,7</b>
Eksport	-	-	-
Import	1,1	477,0	4 531,7
Saldo	-1,1	-477,0	-4 531,7
<b>Ukraina</b>	<b>14 128,9</b>	<b>13 385,0</b>	<b>3 937,7</b>
Eksport	1 083,4	3 720,3	2 348,5
Import	13 045,5	9 664,7	1 589,2
Saldo	-11 962,1	-5 944,4	759,3
<b>Turkmaniston</b>	<b>3 175,9</b>	<b>7 973,7</b>	<b>4 450,5</b>
Eksport	487,7	646,3	1 573,8
Import	2 688,2	7 327,4	2 876,7
Saldo	-2 200,5	-6 681,1	-1 302,9



**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 27,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 6,0 % ga kamaydi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 2018- yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi 72,4 % ni tashkil etdi.




**QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI**  
(2020- yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 203 tani tashkil etib, ular tomonidan 191,6 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 42,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,2 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (28,9 %), yoqilg'i tashqari, nooziq-ovqat xomashyosi (22,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,7 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (14,8 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (6,2 %), turli xil tayyor mahsulotlar (2,2 %), hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar (1,4 %), ichimliklar va tamaki (0,2 %) va mashina va transport uskunalari (0,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**XSST BO`YICHA EKSPORT TARKIBI**  
(2020- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)





**QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI OYLIK DINAMIKASI**  
(mln. AQSh dollari)



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 191,6 million AQSh dollarini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,8 % ga kamaydi.

Eksport hajmining dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 2020- yilning birinchi choragida uning hajmi 60,0 million AQSh dollarini tashkil etdi. Ikkinchi chorakda 47,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, uchinchi chorakda ushbu ko'rsatkich 14,1 mln. AQSH dollarga kamayib, 61,3 mln. AQSH dollarga etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % d
<b>Jami eksport</b>	<b>191 572,0</b>	<b>57,2</b>	<b>100,0</b>	<b>81 434,0</b>	<b>75,4</b>	<b>100,0</b>	<b>110138,0</b>	<b>48,5</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>									
<b>Oziq-ovqat va tirik hayvonlar</b>	43 548,4	48,5	22,7	33 351,1	89,7	41,0	10 197,3	19,3	9,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	462,8	90,3	0,2	456,6	89,1	0,6	6,2	-	-
<b>Yoqilg'i tashqari, nooziq-ovqat xomashyosi</b>	41 562,2	61,6	21,7	1 048,7	118,8	1,3	40 513,5	60,9	36,8
<b>Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	11 871,7	40,7	6,2	3 344,0	27,0	4,1	8 527,7	50,7	7,7
<b>Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar</b>	2 597,6	89,6	1,4	351,0	12,1	0,4	2 246,6	-	2,0
<b>Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	28 260,2	47,5	14,8	20 560,6	58,0	25,2	7 699,6	32,0	7,0
<b>Sanoat tovarlari</b>	55 356,7	72,3	28,9	16 268,1	122,8	20,0	39 088,6	61,7	35,5
<b>Mashina va transport uskunolari</b>	158,4	10,7	0,1	156,7	23,0	0,2	1,7	0,2	-
<b>Turli xil tayyor mahsulotlar</b>	4 209,0	4,4 m.	2,2	3 961,5	4,2 m.	4,9	247,5	11,5 m.	0,2
<b>Xizmatlar</b>	3 545,0	54,8	1,8	1 935,7	50,8	2,3	1 609,3	60,7	1,5

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda turli xil tayyor buyumlarga to'g'ri kelmoqda.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, turli xil tayyor mahsulotlardan tashqari barcha tovar guruhlarida kamayish kuzatildi.


**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
*(yanvar-noyabr, % da)*

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,2	26,8	22,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,3	20,1	21,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,6	8,7	6,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0	0,9	1,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	24,9	17,8	14,8
Sanoat tovarlari	28	22,9	28,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0	0,4	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	0,3	2,2
Xizmatlar	3,5	1,9	1,8



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
EKSPORTI TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	41 682,0	74,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 156,4	22,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	287,8	1,0
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	138,7	47,9
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	179,5	4,5 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	458,0	89,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	4,8	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	34 999,9	55,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4 585,8	2,4 m.
Barcha turdagi oltingugurt	1 005,1	51,9
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	970,7	137,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	10 753,5	40,2
Elektr toki	1 114,0	148,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4,2	0,3
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2597,6	89,6
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	20 671,6	58,5
O'g'itlar	7 436,8	30,8
Bo'yoqlar, laklar va shunga o'xshash materiallar	104,9	-
Birlamchi bo'lmagan plastik	29,5	61,8 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy moddalar va mahsulotlar	13,4	-
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	50 908,6	71,7

Rangli metallar	21,6	-
Teri, tayyor charm buyumlar, masalan, mo'ynalar	3 856,4	71,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	168,8	17,8 m.
Asbest mahsulotlari; ishqalanish materiallari	237,7	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobililar	3,3	0,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	26,4	5,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	94,6	11,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	31,9	34,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	2 808,6	3,0 m.
Poyabzal	290,6	-
Har xil tayyor buyumlar	1 033,3	195,0 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	53,3	4,0 m.

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kapaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yilning yanvar-noyabridagi 36,4 % dan 2020- yilning yanvar-noyabrida 42,5 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining 18,2 i %), Qozog'iston (15,7 %), Rossiya Federatsiyasi (15,2 %), Turkiya (12,2 %), Afg'oniston (8,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,4 %) va Qirg'iz Respublikasi (5,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 81,9 foizni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2020- yil yanvar-noyabr, % da)**



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Eron yetakchi mavqeiini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog'iston egalladi. Rossiya Federatsiyasidan ozgina ortda qolgan Turkiya uchinchi pog'onadan to'rtinchi o'ringa tushib ketdi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yining mos davriga nisbatan 39 davlatdan 44 davlatga ko'paydi.


**QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI  
(yanvar-noyabr)**

Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Eron	54 872,8	34 918,0	3,9 m.	63,6	2	1
Qozog'iston	40 256,8	30 084,8	145,8	74,7	4	2
Rossiya Federatsiyasi	33 625,2	29 093,0	110,1	86,5	5	3
Turkiya	58 953,8	23 450,4	2,1 m.	39,8	1	4
Afg'oniston	28 614,8	15 507,1	3,5 m.	54,2	6	5
Xitoy Xalq Respublikasi	45 837,8	14 156,1	74,5	30,9	3	6
Qirg'iz Respublikasi	10 311,2	9 760,2	4,1 m.	94,7	10	7
Tojikiston	13 832,6	7 533,4	2,7 m.	54,5	9	8
Pokiston	18 142,1	7 198,7	65,7	39,7	7	9
Indoneziya	13 875,9	5 997,3	51,2	43,2	8	10
Hindiston	312,4	2 452,8	128,0	7,8 m.	26	11
Ukraina	3 720,3	2 348,5	3,4 m.	63,1	11	12
Singapur	646,3	1 573,8	132,5	2,4 m.	20	13
Moldova	751,4	1 405,4	41,1	187,0	19	14
Chexiya	1 358,7	1 059,5	3,1 m.	78,0	13	15
Turkmaniston	815,5	987,0	127,9	121,0	18	16
Yaponiya	16,2	628,7	38,6 m.	38,8 m.	33	17
Polsha	983,0	556,3	159,3	56,6	17	18
Malayziya	1 578,0	433,0	584,4 m.	27,4	12	19
Filippin	1 092,3	426,0	23,0	39,0	16	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, sanoat tovarlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar kiradi.





**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Eron		Qozog'iston		Rossiya		Turkiya	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>54,9</b>	<b>34,9</b>	<b>40,3</b>	<b>30,1</b>	<b>33,6</b>	<b>29,1</b>	<b>59,0</b>	<b>23,5</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,2	0,1	16,5	15,2	6,4	11,1	29,3	0,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1	0,2	0,5	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	38,7	30,1	0,1	0,2	0,1	-	-	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	1,6	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,7	0,1	21,5	10,9	11,7	6,2	0,1	-
Sanoat tovarlari	10,3	4,6	2,1	3,6	9,3	8,9	29,3	22,6
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	0,5	0,9	-	-
Xizmatlar	-	-	0,1	0,1	3,5	1,8	-	-

Xizmatlar eksporti hajmi **3 545,0** ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,8** % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **45,2** % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**38,4** %) va safarlar (turizm) (**6,4** %), moliyaviy xizmatlar (**22,3** %) hamda qurilish xizmatlari (**2,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**  
(2020- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (30,9 %) ni tashkil etadi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **41,0** mln. dollar qiymatli **71,4** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan **37,3** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **47,6** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **15,2** mln. AQSh dollariga teng **28,6** ming tonna sabzavot, shuningdek, **25,8** mln. AQSh dollari qiymatidagi **42,8** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **21,4** % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**  
*(2020- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)*

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (38,6 %), Rossiya Federatsiyasi (26,6 %), Qirg'iz Respublikasi (11,2 %), Pokiston (11,0 %), Afg'oniston (6,7 %), Turkmaniston (2,0 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (1,3 %), davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda viloyatda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.


**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI  
(yanvar-noyabr)**

Davlat nomi	2019- yil			2020- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	Ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	27 516,2	16 224,3	20,7	37 257,7	15 111,2	36,8
Rossiya Federatsiyasi	13 465,6	6 179,6	7,9	20 006,6	10 924,7	26,6
Qirg'iz Respublikasi	261,2	8 568,4	10,9	3 109,2	4 488,3	10,9
Pokiston	5 266,9	11 148,6	14,2	2 146,5	4 073,6	9,9
Afg'oniston	3 381,1	5 379,3	6,9	3 930,1	2 562,9	6,2
Turkmaniston	72,2	47,8	0,1	1 097,7	1 375,4	3,4
Xitoy Xalq Respublikasi	51,1	55,8	0,1	1 574,1	1 246,9	3,0
Iroq	594,4	332,0	0,4	256,0	269,0	0,7
Turkiya	2 111,1	24 200,6	30,9	258,3	260,0	0,6
BAA	54,8	112,3	0,1	49,6	147,3	0,4
Ozərbayjon	21,8	28,2	-	92,5	90,6	0,2
Guruziya	43,5	5,2	-	786,9	98,4	0,2
Eron	210,0	188,0	0,2	88,0	68,5	0,2
Latviya	195,4	93,4	0,1	184,6	68,0	0,2
Ukraina	1 482,2	3 301,9	4,2	190,0	83,9	0,2
Belarus	168,9	64,5	0,1	105,1	23,8	0,1
Boshqa mamlakatlar	1 842,6	2 360,8	3,2	229,9	130,2	0,4

\*- qiymat ifodasida


## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-noyabr)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 277,2 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 82,8 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (63,4 %), sanoat tovarlari (11,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (9,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)




- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Yoqilg'i bundan mustasno, nooziq-ovqat xom ashyolari
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Kimyoviy va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Har xil tayyor mahsulotlar
- Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 147,8 mln. AQSh dollariga kamaydi va 277,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,3 mln. AQSh dollariga yetdi.



**QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI OYLIK DINAMIKASI**  
(mln. AQSh dollari)



Import hajmi dinamikasi shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning birinchi choragida 81,1 million AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, II chorakda esa bu ko'rsatkich biroz kamayib, 69,2 million AQSh dollar tashkil qildi, III chorakda bu ko'rsatkich biroz o'sib, 74,8 million AQSh dollariga yetdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan pasayish mos ravishda 44,1 % ni tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami import</b>	<b>277 207,9</b>	<b>65,2</b>	<b>100,0</b>	<b>47 971,0</b>	<b>49,4</b>	<b>100,0</b>	<b>229 236,9</b>	<b>69,9</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12 234,3	54,9	4,4	6 471,4	41,1	13,5	5 762,9	88,1	2,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13 390,1	66,4	4,8	9 046,8	67,3	18,9	4 343,3	64,6	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8 516,7	120,9	3,1	7 841,5	137,8	16,3	675,2	49,8	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	106,3	3,1 m.	-	105,9	3,0 m.	0,2	0,4	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	25 774,5	56,3	9,3	6 121,5	28,7	12,8	19 653,0	80,3	8,6
Sanoat tovarlari	30 484,5	42,1	11,0	8 912,6	41,8	18,6	21 571,9	42,3	9,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	175 835,0	79,2	63,4	7 854,3	44,6	16,4	167 980,7	82,2	73,3
Turli xil tayyor buyumlar	9 601,4	28,2	3,5	924,5	110,1	1,9	8 676,9	26,1	3,8
Xizmatlar	1 265,1	95,5	0,5	692,5	62,9	1,4	572,6	2,6 m.	0,2

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi 44,4 % dan 65,1 % ga, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar 7,3 % dan 9,5 % o'sdi, sanoat tovarlari importining ulushi esa 36,5 % dan 9,4 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(2020- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,1	5,2	4,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,7	4,7	4,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	1,7	3,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	10,9	9,3
Sanoat tovarlari	36,3	17,0	11,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	45	52,2	63,4
Turli xil tayyor buyumlar	3,9	8,0	3,5
Xizmatlar	0,6	0,3	0,5

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 2018- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 0,6 % dan 0,5 %ga kamaydi.






**XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 360,0	170,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	77,0	3,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	4 635,0	41,8
Sabzavotlar va mevalar	2 953,0	74,4
Tirik hayvonlar	2 191,0	104,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metall parchalari	1 454,0	68,9
Probka va yog'och-taxtalar	7 294,0	81,6
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	1 585,0	36,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	11,0	23,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	579,0	14,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 467,0	4,7 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7 561,0	108,5
Ko'mir, koks va briketlar	72,0	90,7
Tabiiy va sun'iy gaz	883,0	-
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	106,0	3,2 m.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	781,0	7,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	111,0	31,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	17 508,0	130,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	740,0	118,8
Organik kimyo moddalari	3 939,0	49,3
Noorganik kimyo moddalari	845,0	62,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1 213,0	95,1
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashqari)	372,0	4,0
Buyaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoqlar	265,0	55,4
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	14 833,0	28,6
Metalldan tayyorlangan buyumlar	10 494,0	91,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 080,0	166,5

Probka va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	340,0	42,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 726,0	29,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 141,0	97,7
Rangli metallar	833,0	2,6 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz va kartondan tayyorlangan buyumlar	36,0	19,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12 232,0	40,4
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	114 344,0	84,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	641,0	47,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	32 435,0	89,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	6 438,0	98,4
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	8 816,0	90,9
Metallarni qayta ishlash mashinalari	641,0	72,3
Kanselyariya mashinalari va ma'lo'otlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	284,0	41,3
Boshqa transport uskunolari	3,0	2,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 047,0	144,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5 316,0	17,2
Har xil tayyor buyumlar	96,0	68,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	122,0	39,7
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	991,0	192,4
Poyabzal	17,0	53,0
Yo'l anjomlari, so'mkalar va shunga o'xshash konteynerlar	7,0	84,9
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan: soatlar	5,0	23,0

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga shakar va shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal (97,0 % ga pasaygan), sabzavotlar va mevalar (25,6 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining kamayganligi (68,5 %) hamda tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (92,9 %) bevosita ta'sir etgan.


**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLAT-LARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
*(yanvar-noyabr, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)*


2019- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha Belarus Respublikasi o'rnini Germaniya egalladi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan 56 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR**  
*(yanvar-noyabr)*

Davlat nomi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	162 085,6	95 031,6	2,2 m.	58,6	1	1
Germaniya	21 255,4	40 858,0	2,2 m.	192,2	6	2
Turkiya	13 469,3	24 043,7	63,6	178,5	7	3
Rossiya Federatsiyasi	41 787,0	23 419,3	99,7	56,0	2	4


Davlat nomi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Hindiston	9 355,5	12 453,2	189,9	133,1	9	5
AQSh	4 793,5	12 402,5	85,8	2,6 m.	15	6
Qozog'iston	32 869,5	12 187,9	2,2 m.	37,1	3	7
Yaponiya	6 024,1	8 246,2	43,2	136,9	11	8
Belarus Respublikasi	4 268,3	5 493,8	3,8 m.	128,7	16	9
Fransiya	477,0	4 531,7	43,6 m.	9,5 m.	36	10
Koreya Respublikasi	4 882,6	4 470,4	2,9 m.	91,6	13	11
Avstraliya	30 698,1	4 237,1	20,2	13,8	5	12
Italiya	2 429,3	3 915,7	12,4	161,2	22	13
Turkmaniston	7 327,4	2 876,7	2,7 m.	39,3	10	14
Litva	3 2396,0	2 469,4	18,0 m	7,6	4	15
Qirg'iz Respublikasi	143,0	2 057,7	12,3	1 439,0	42	16
Polsha	932,8	1 840,0	4,1 m.	197,3	31	17
Shvesariya	1 049,4	1 828,3	125,0	174,2	29	18
Ukraina	4 825,2	1 662,1	5,9 m.	34,4	14	19
Avstriya	9 664,7	1 589,2	74,1	16,4	8	20

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,3 % ulushi bilan Germaniyani (14,7 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, AQSH va Qozog'iston) jami importning 79,5 % ulushini tashkil qiladi, bu 220,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2020- yil yanvar-noyabr)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI**  
(2020- yanvar-noyabr, ulushi, % da)

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 265,1 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 6,0 marttaga o'sgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (60,5 %), transport xizmatlari (33,7 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (1,8 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 4,0 % ni tashkil etib, uning tarkibida telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (4,0 %) tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (75) 221 4428